

XIVA VA ROSSIYA O'RTASIDAGI ELCHILIK MUNOSABATLARI

Raximberganov Jo'rabek Otanazar o'g'li
Ma'mun universiteti tarix kafedrasi o'qituvchisi
rakhimberganovjorabek@gmail.com

Annotatsiya

Pyotr I Rossiya qudratini tiklash va uning hududini kengaytirish maqsadida qo'shni hududlarga hujumlar tashkil qildi. XVIII asrga kelib Rossiya Shvetsiya bilan shimoliy urushni tashkil qildi. Uning urushda g'alaba qozonishida esa moddiy boyliklar juda muhim edi. Shu maqsadda Xiva xonligi Pyotr I ning muammosiga yechim edi. Rossiya Xiva xonligiga qarshi ekspeditsiya tashkil qildi va mag'lubiyatga uchradi. Shu paytgacha mavjud bo'lgan savdo va elchilik aloqalari to'xtab qoldi. Bu borada keying davrlarda bir necha marotaba yuborilgan elchilar tufayli yana avvalgiday savdo aloqalari qayta tiklandi.

Kalit so'zlar. oltin-kumush, Gagarin, Nefesxo'ja, Sherg'oz, mustamlaka, tobe, Floriya Beneveni, Karaganda qal'a, Vaysmamat, Yodgor Olimov, Yorliq, Petropavlovsk, Kollegiya, G.I.Golovkin, knyaz.

ПОСОЛЬСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ХИВА И РОССИЕЙ

Рахимберганов Жорабек Отаназарович
Преподаватель кафедры истории Университета Мамун
rakhimberganovjorabek@gmail.com

Абстрактный

Петр I организовал нападения на соседние области, чтобы восстановить могущество России и расширить ее территорию. К 18 веку Россия организовала северную войну со Швецией. Материальный достаток имел большое значение в его победе в войне. Для этой цели Хивинское ханство было решением проблемы Петра I. Россия организовала поход против Хивинского ханства и потерпела поражение. Торгово-дипломатические отношения, существовавшие до сих пор, прекратились. В связи с этим благодаря неоднократно посланным послам торговые отношения были восстановлены в прежнем виде.

Ключевые слова. золото и серебро, Гагарин, Нефешоя, Шергози, колония, подданный, Флория Беневени, Карагандинский замок, Вайсмамат, Ёдгор Олимов, Ярлык, Петропавловск, Колледж, Г.И. Головкин.

EMBASSY RELATIONS BETWEEN XIVA AND RUSSIA

Rakhimberganov Jorabek Otanazarovich

Teacher of the Department of History of Mamun University

rakhimberganovjorabek@gmail.com

Abstract

Peter I organized attacks on neighboring regions in order to restore the power of Russia and expand its territory. By the 18th century, Russia organized a northern war with Sweden. Material wealth was very important in his victory in the war. For this purpose, the Khanate of Khiva was the solution to Peter I's problem. Russia organized an expedition against the Khanate of Khiva and was defeated. Trade and diplomatic relations, which existed until now, have stopped. In this regard, thanks to ambassadors sent several times, trade relations were restored as before.

Keywords. gold and silver, Gagarin, Nefeshoja, Shergozi, colony, subject, Floria Beneveni, Karaganda castle, Vaismamat, Yodgor Olimov, Label, Petropavlovsk, College, G.I. Golovkin, prince.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ishini olib borish va muhokama qilishda mahalliy olimlar bilan, birgalikda Sharq va G'arb olimlarining asarlaridan keng foydalanildi. H.Ziyoyev, Bartold V.V, . Abdurasulov U asarlari ilmiy taxlil qilindi. Internet ma'lumotlari tadqiqot ishini to'ldirish va xulosa qilishda alohida ahamiyatga ega. Arxiv materiallari asosida savdo-sotiq jarayonlari, undagi muammolar, elchilik aloqalari haqida ma'lumotlar to'plandi. "Firdavs ul iqbol", asarlari tadqiqot ishini bayon qilishda asosiy qo'llanma sifatida foydalanildi.

Kirish

Chor Rossiyasi va Xiva xonligi qadimdan savdo-sotiq va elchilik aloqalarini olib borishgan. Ikki o'rta savdodan keladigan daromad ular uchun juda manfaatli edi. XVII asrga kelib Rossiyada iqtisodiy rivojlanish yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Tarixdan ma'lumki Xiva xonligi ham doimo o'z hududini mustahkamlash va uni kengaytirish uchun harakat qilgan. XVII asrdan Chor Rossiyasi O'rta Osiyo hususan, Xiva xonligini bosib olishga katta qiziqish bildirgan. Shu maqsadda turli harbiy ekspeditsiyalarni Xiva xonligiga jo'natgan. Shulardan keng muhokamalarga sabab bo'lgan ekspeditsiya esa aynan Bekovich-Cherkasskiy harbiy harakatlaridir.

Natijalar va muhokama.

Chor Rossiyasi XVIII asr boshlarida hududiy jihatdan yirik davlatga aylana bordi. Boltiq dengizi va Qora dengizda hukumron bo'lish, savdo sohasida keng bozorni shakillantirish uchun Pyotr I qattiq harakat qila boshlaydi. Shu jihatdan Shimoliy urushni tashkil qildi. Uning diqqat e'tibori aynan shu urushga qaratildi.

V.V. Bartoldning fikriga ko'ra, Pyotr I ning Xiva xonligiga etiborsizlik bilan qaraganligi aytiladi. Xiva xonligining ichki nizolari, o'zaro urushlar natijasida ularni o'ziga teng deb ko'rmagan, ham xon Shohniyozning yozgan maktubi o'laroq bu hududga nisbatan e'tibori kamaygan. Bu holat Ashurbek va Xo'ja Nafaslarning elchiligiga qadar (1713-1715) davom etgan [1, b. 204].

Petr I Shimol urushi bilan band bo'lgan bir paytda urush harajatlarini qoplash va armiya qudratini mustahkamlash maqsadida senatga "oltin urushning qonidir" deb xat yozish bilan barobar, oltin-kumush konlarini qidirib topish choralarini ko'rishni ko'rsatgan. Xuddi shu vaqtda, ya'ni 1713 yilda Nefesxo'ja nomli turkman Astraxanga kelib, Amudaryodan mayda oltin olinganligi va u ilgarigi vaqtlarda Kaspiy dengiziga quyilganligini rus hukumatiga ma'lum qildi. Shu bilan bir qatorda Amudaryoni yana Kaspiy dengiziga burish mumkinligi va bu ishga turkmanlarning yordam berishlarini ko'rsatib o'tgan. Ayni bir vaqtda Sibir general-gubernatori Gagarin Sharqiy Turkistonning Yorkent shahridagi daryoda ham oltin qumi borligi to'g'risida xabar olinganligini Petr I ga ma'lum qildi. Bunday xabarlar Petr I diqqatini jalb qilib, 1714 yilda Xiva xonligiga Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy qism yuborish to'g'risida farmon berdi. [5, b. 53].

A. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining tarkibi va unda ishtirokchilar soni, ularning harakati va ayanchli yakuniga sabab bo'lgan Xiva xoni Sherg'ozixon (1714-1728) amalda qo'llagan tadbirga oid ma'lumotlarni Terentyev M.A. asarida ham uchratish mumkin [2, b. 41].

Petr I, ayniqsa, Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy yurishni uyushtirishga katta e'tibor berib, uning 13 punktdan iborat vazifalarini belgiladi. Bunga ko'ra, Bekovich-Cherkasskiy Volga Kaspiy yo'li orqali Xiva xonligi tomon yurish qilib, Amudaryo qirg'og'ida harbiy qal'a qurishi, Amudaryoni Kaspiy dengizi tomon burishi va Xiva xonligini rus davlati tobeligiga o'tishiga ko'ndirishi lozim edi. Agar Xiva xoni rus davlati tobeligiga o'tsa, u vaqtda Bekovich-Cherkasskiy xonning o'z kishilari bilan birga ikki rus kishisini Yorkentga oltin borligini aniqlash uchun yuborishi kerak edi. Shuningdek, Bekovich-Cherkasskiy zimmasiga Xivadan Buxoro xonligining ham rus davlati tobeligiga o'tishi masalasini aniqlash vazifasi yuklatilgan edi [8, b. 58-61].

Senat Pyotr I farmoni asosida Bekovich-Cherkasskiyga qo'shini 6240 kishidan tashkil etish haqida ko'rsatma bergan [8, b. 1-2]. Shuningdek unga injenerlar, vrachlar, tarjimonlar va savdogarlar kiritilgan. Ikki yildan ortiq tayyorgarlikdan so'ng Bekovich-Cherkasskiy 1717-

yilda uch mingdan ortiq askarlar bilan Astraxandan Xiva tomonga yo‘l oldi. Bekovich-Cherkasskiy Ustyurtga yetmasidan Xivaga vakil yuborib, elchi sifatida kelayotganligini xonga ma‘lum qildi. Biroq bu vaqtlarda Xiva xonligida uning qo‘shin bilan kelayotganligi haqida ovozlar tarqalib, u yerda bunga qarshi tayyorgarlik ko‘rilayotgan edi. Xullas, Xiva askarlari bilan dushman o‘rtasida to‘qnashuv ham yuz berdi. Pirovardida, Xiva xoni Bekovich-Cherkasskiy elchi sifatida qabul qilishni va‘da qilib, barchasini bir joyga joylashtirish imkoni yo‘qligi va shu bois ularni xonlikning turli tomonlariga taqsimlashni taklif etdi. Shu tariqa uning askarlarining bo‘linib ketishiga erishib, qo‘shinni mag‘lubiyatga uchratdi. Bekovich-Cherkasskiy va uning askarlarining deyarlik barchasi o‘ldirildi. Bu vaqtda Sherg‘oz xonligi boshchiligida(1715-1727) Xorazmning qudrati tiklangan edi. Xiva xonligida rus askarlarining qirib tashlanishi Pyotr I ning g‘azabini haddan tashqari qo‘zg‘atib Xiva bilan aloqa keskinlashdi [5, b. 53].

Shu ravishda Pyotr I ning harbiy kuch bilan o‘zbek xonliklarida rus davlati ta‘sirini o‘rnatish harakati muvaffaqiyatsizlik bilan tugallangan edi.

Buxoro xonligi Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy yurishiga e‘tibor bergan bo‘lsada, biroq unga qarshi biror chora ko‘rmay xolis turdi. Bu bilan Buxoro xonligi rus davlati bilan aloqani yomonlashishiga yo‘l qo‘ymaslikni nazarda tutgan edi. Xiva xoni dushmanni mag‘lubiyatga uchraganini namoyish qilish maqsadida Bekovich-Cherkasskiy kallasini Buxoroga yuboradi. Xon esa uni olmay Xivaga qaytarib yuboradi. Bu bilan Buxoro xoni Xiva xoniga o‘z nafratini bildirgan. [5, b. 55]. Hamid Ziyoyevning bergan ma‘lumotlariga qaraganda rus hukumati Floriya Benevenini Buxoro elchisi bilan birga Buxoroga yuboradi bundan Buxoroni iloj topilsa xonlik bilan dushman bo‘lgan mamlakatlar, jumadan, Xivaga qarshi ittifoq tuzushi lozim edi. Floriya Benevini Buxoroda elchilik vazifasida yurgan paytida Xiva xoni Sherg‘oziyxon Buxoroga rus elchisining kelganligini eshitib uni Xivaga kelishini va bu yerda zo‘r hurmat bilan qarshi olinishini ma‘lum qildi. Rus elchisi Buxoroda o‘zaro nizolarning kuchayishi va ayrim xon saroyidagi amaldorlarning xatti- harakatidan xavfsirab Xivaga borishga qaror qildi. Haqiqatan Floriya Beneveni Xivada Sherg‘oziyxon tomonidan yaxshi qabul qilindi. Bu bilan Xiva xoni rus davlati bilan aloqani yaxshilashga uringan edi. Qabul marosimida Sherg‘oziyxon o‘zaro savdo aloqalarini tiklashni va dushmanlikdan foyda yo‘qligini F. Beneveniga tushuntirgan. U Bekovich-Cherkasskiy voqeasiga to‘xtab, u elchi sifatida emas, balki ko‘p askarlar bilan Xivada xonlikni bosib olish uchun kelganligi aytadi. Sherg‘oziyxon rus elchisi bilan birga Subxonquli nomli kishini javob elchi sifatida Rossiyaga yuborgan[5, b. 57].

Sherg‘oziyxon oldingi yillarda, ya‘ni 1720-yilda Vaysmamatni elchi sifatida Rossiyaga yuborgan edi. Bu elchi olib kelgan xon yorlig‘ida xonlikning Eron bilan urush olib borayotganligi xabar qilinib, rus davlati bilan do‘stona aloqalar Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi munosabati bilan to‘xtab qolganligi va bu aloqalarni tiklash zarurligi Pyotr I ga

ma'lum qilingan. Bu bilan barobar Bekovich-Cherkasskiy ko'p sonli qo'shin bilan kelib xonlikni egallamoqchi bo'lganligi uchun uning qo'shinlariga zarba berilganligi uqtirib o'tilgan[8, b. 85-87]. Pyotr Ining farmoniga muvofiq Xiva elchisi 5 ta hamrohi bilan Astraxandan soqchilar nazoratida Peterburgga keltirilib, Petropavlovsk qamoqxonasiga qo'yilgan. Keyin elchi tashqi ishlar kollegiyasiga chaqirilib, u bilan suhbat o'tkazilgan. Elchi subatda Xiva xoni savdoni tiklashni so'raganligini ma'lum qilgan. Kollegiya boshliqlari Bekovich-Cherkasskiyning savdoni kuchaytirish va Karaganda qal'a qurish uchun yuborilganligini bayon qilganlar. Biroq Sherg'oziyxonning uni o'ldirib va ruslarni asir olib, elchilik qoidalariga xilof ish qilganligi uqtirib o'tilgan. Kollegiyada Bekovich-Cherkasskiyning xuni uchun elchini osib o'ldirish lozim deyilganda elchi bu "sizlarning ishingiz" deb javob bergan[8, b. 86]. Elchi 1721-yilning 10-martida qamoqxonada vafot etgan[8, b. 88]. Uning hamrohlaridan biri Kuchek nomli kishigina rus hukumatining rus asirlarini ozod qilish to'grisidagi xatini Xivaga jo'natgan[3, b. 111.5]. Qolgan 3 kishi 1724-yilda ishga yuborilgan edi [3, b. 111.5].

O'sha davr savdo sotiq jarayonlari haqida ham juda ko'plab ma'lumotlar mavjud. XVIII asrning 30-40 yillaridan boshlab Rossiyadan xonlikka turli matolar, metall buyumlar, mis, temir, mo'yna keltirilgan bo'lsa, xonlikdan Orenburg orqali Rossiyaga paxta tolali matolar, ip, paxta xomashyosi va mevalar olib ketilganligiga oid ma'lumotlar keltiriladi. [4, b. 118]

1720-yildan, ya'ni Xiva elchisi hamrohlarining qamoqqa olinishidan to' Xivadan Floriya Benevenining qaytgunga qadar rus davlatining Xiva xonligi bilan elchilik aloqalari to'xtagan. Savdo aloqasi esa Bekovich-Cherkasskiyning vaqtidayoq izdan chiqqan edi. Floriya Beneveni Buxoro xonining yorlig'i va Xiva elchisi Subxonquli bilan 1725-yilda Astraxanga kelgan[3, b.8-14]. Ular Pyotr I vafot etgandan keyin Peterburgga keldilar. F.Beneveni Sankt-Peterburgda Abulfayzxon va vazir Muhammad Hakim nomidan Pyotr I va davlat kansleri nomiga yozilgan xatlarni rus davlat vakillariga topshirdi. Har ikki xatda o'zaro elchilik va savdo aloqalarini samarali davom ettirish taklifi bilan bir qatorda Xiva xoni Sherg'oziyning Bekovich-Cherkasskiyga nisbatan bo'lgan munosabati ham qoralanadi. . [5, b. 58].

Ayni bir vaqtda rus hukumati Xiva xoni Sherg'oziyxonning elchi Subxonquli orqali yuborgan yorlig'ini olgan. Yorliqda o'zaro aloqalarini tiklash bayon etilgan[3, b.25-26]. Elchi Subxonqulining faoliyati muvaffaqiyatli tugallanib, rus hukumati Xiva xonligi bilan aloqani tiklash haqida qaror qabul qiladi[3, b.26]. Subxonqulining elchilik aloqalari A. Otamurodova va O. Abduraximovlarning monografiyalarida ham uchraydi[7, b.99]. Natijada ma'lum vaqtgacha to'xtab qolgan elchilik va savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan edi. Ko'rsatib o'tish lozimki, ayniqsa, savdoning izdan chiqishi har ikki tomon manfaatlariga putur yetkazgan edi. Shuning uchun ham Xiva xonligi rus davlati bilan aloqani tiklash uchun harakat qilgan [5, b. 59]. Xiva xonligi bilan savdo aloqalarining to'xtab qolishi rus davlatining Volga_Kaspiy yo'lidagi savdosiga salbiy ta'sir etgan edi. Shuning uchun ham hukumatning yuqorida qayd

qilingan qarorida Xiva bilan savdo aloqalarining uzulib qolishi savdogarlarga Zarar yetkazganligi va boj yig'iminin kamayib ketishiga sabab bo'lganligi uqtirib o'tilgan [3, b.98]. Rus podshohi Xiva xonligi bilan savdo aloqasi tiklanishi munosabati bilan O'rta Osiyoga maxsus savdo karvonlari yuborish to'g'risida farmon chiqardi. Karvonboshi lavozimiga Astraxanda istiqomat qiluvchi asli samarqandlik savdogar Yodgor Olimov tayinlandi [5, b. 59]. 1727-yilda Yodgor Olimov Xivada bo'ladi va Xiva xoni o'z yorliqlarini rus hukumatiga yuborgan [1, b. 59]. Yodgor Olimov davlat kansleri graf G.I.Golovkinga Xiva xoni Bahodirxonning yorlig'ini topshirgan. [5, d. 60]. "Xorazm,-deyilgan yorliqda,-qadimdan rus davlati bilan o'zaro do'stona aloqada bo'lib hamma vaqt elchilar va savdogarlar qatnaganlar. Sherg'oziyxon va sizning buvangiz vaqtida Davlat Girey(Bekovich-cherkasskiy_H.Z) biz tomonga yuborilgan,qaysiki... bizning oramizdagi qadimiy do'stlikni buzib sizning buvangiz elchilarini va savdogarlarini biz tomonga kelishini to'xtatgan ..." [3, d.81-83]. Shu satrlardan so'ng Sherg'oziyxon va Pyotr Ining vafot etganligini yozib , bundan keyin ham elchilik aloqalarini kuchaytirish taklif qilinadi.

Astraxan mahalliy hokimiyatining Sank-Peterburgga yozgan xabariga qaraganda, 1732-yilda Xiva xonining Dostok nomli elchisi 40 kishi bilan Astraxanga kelgan. [3, t.314].

XVIII asr ikkinchi yarmiga kelib o'zaro munosabatlar ijobiy tomonga o'zgarib, bunda Rossiyaning o'zida taxt uchun kurashlar bo'lib, natijada Yekaterina II (1762-1796) taxtga o'tiradi, toj kiyish marosimida ishtirok etish imkoniga ega bo'lgan Xiva elchisi Olloshukurboyning tashrifiga oid ma'lumotlar mavjud bo'lib, sovg'a salomlar bilan borganligi ta'kidlab o'tiladi [6].

Xulosa

Xiva xonligi diplomatiyasida XVIII asr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini mag'lub qilganligi bilan manbalarda qayd etilgan. Bu mag'lubiyat rus hukumatining talqinicha elchilik qonun qoidalariga zid. Ammo bu hodisani Xiva xoni mamlakatga qilingan hujum deb isbot beradi. Tarixiy haqiqat shuki Chor Rossiyasi o'z qilmishini yashirishga va bunda xonlikni ayblashda davom etdi . Bu holatlar hududlaning bir necha yillar davomida savdo ishlari to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. Ikkala davlat ham bu besabab tushunmovchiliklardan iqtisodiy taraflama zarar ko'rdi. Lekin bu muammo keyinchalik yechimini topdi va yana savdo aloqalari davom etdi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Bartold V.V. Istoriya izucheniya Vostoka v Yevrope i Rossii. Leksii. Izdaniye. Leningrad, 1925. S. 204.
2. Terentyev M.A. Istoriya zavoyevaniya Sredney Azii. Tom-1. SPb., 1906. S. 41.
3. Arxiv MInisterstva inostrannix del Rossii, Snosheniya Rossii s Xivoy.d.1,

4. Istoriya Xorezma. S drevneyshix vremen do nashix dney. Pod red. I.M. Muminova. Tashkent: "Fan", 1976. S. 118.
5. Ziyoyev. H. Asarlar to'plami. O'zbekiston va Volga bo'yolari (XVI asrning ikkinchi yarmi - XIX asrlar). B-382.
6. Abdurasulov U., Paolo Sartori. At the Coronation! A Khivan Ambassador Makes It to Moscow (1762). // Journal of Central Asian History - 1 (2022). P. 178-218. Қарапг: AVPRI, f. 109, op. 1, d. 2, l. 198.
7. Otamurodova A., Abdurasulov O. Xiva elchilari. Toshkent: «Tafakkur qanoti», 2016. B. 99
8. SGVIA Rossii, VUA, d.35, 1.